1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN INTENSIV FOYDALANISHDA XORIJ TAJRIBALARI

Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya
Tezisda 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanishning zarurati yoritilgan. Raqamli vositalar, multimedia texnologiyalari, interaktiv metodlar va didaktik o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlari hamda xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Shuningdek, ularni amaliyotga joriy etishdagi muammolar va yechimlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalarni ona tili darslariga integratsiyalash o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, ona tili darslari, pedagogik jarayon, intensiv foydalanish, didaktik o‘yinlar, raqamli vositalar, interaktiv metodlar, xorij tajribalari, integratsiya*

KIRISH

Xalqaro miqyosda ta’limiy natijalarni baholovchi nufuzli tashkilotlardan biri bo‘lgan IEA(International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda biz ko‘rishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta’lim metodologiyasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qayta ko‘rib chiqish zarurligini aytib o‘tmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darajasini aniqlovchi PIRLS 2021 global monitoring loyihasida natijalar shuni ko‘rsatadiki dunyo bo‘yicha ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion assessment(baholash) texnologiyalarini joriy etish jadal tus olgan. Hisobot natijalariga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan 57 ta mamlakatdan 26 tasi hamda 8 ta benchmarking subyektidan 7 tasi ma’lumotlarni yig‘ish va o‘quvchilar ko‘nikmasini aniqlashda an’anaviy qog‘oz shaklidan to‘liq innovatsion raqamli baholash(digital assessment) platformalariga o‘tgan.[5] Binobarin, ta’lim sifatini monitorig qiluvchi zamonaviy xalqaro tadqiqotlar tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafaqat an’anaviy matn, balki multi-modal veb-saytlar hamda turli raqamli vositalar bilan ishlash, axborotni vizual va audial shakllarda idrok etish ko‘nikmalari ham alohida mezon sifatida baholanmoqda. Bunday global tendensiyalar respublikamiz umumta’lim maktablarining 1-sinf ona tili darslaridanoq innovatsion texnologiyalardan tizimli va intensiv foydalanish metodologiyasini takomillashtirish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Zero, ilk savodxonlik darslarida interaktiv raqamli didaktik o‘yinlar va multimedia topshiriqlaridan maqsadli foydalanish dars vaqtini tejash hamda mashg‘ulotlar jadalligini (intensivligini) oshirish orqali ta’lim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

YUNESKO tashkilotining 2022-2025 yillarga mo‘ljallangan “Talimda Texnologik Innovatsiyalar Strategiyasida” YUNESKO g‘oyalar tajribasini kuzatadigan

[1] Boston College. (2021). About PIRLS 2021: PIRLS 2021 International Results in Reading. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education. Retrieved from https://pirls2021.org/results.1-19 pgs

strategik kuzatuvchi sifatida ta’lim tizimiga kirib keladiga texnologik innovatsiyalarning imkoniyatlarini va foydalanishda duch keladigan muammolarni chuqur anglash, global, mintaqaviy va milliy ta’lim va rivojlantirish siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlangan.

Asosiy qism. Xorijy davlat ta’lim tajribalarida jumladan, AQShda boshlang‘ich ta’limida ona tili (English Language Arts) darslarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash muhim pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Xususan, raqamli hikoyalash (digital storytelling), elektron kitoblar (e-books), podkastlar, bloglar, raqamli video yaratish vositalari, ta’limiy mobil ilovalar va raqamli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish, yozish, tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotchilar J. Kolvell va A. Hutchisonlarning ta’kidlashicha, AQShning boshlang‘ich sinf til ta’limi amaliyotida wiki texnologiyalari, raqamli video vositalari, bloglar, iPad ilovalari, raqamli o‘yinlar, Kindle elektron kitoblari va podkastlardan foydalanish savodxonlikni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Shuningdek, texnologiyalarni til ta’limiga integratsiyalash o‘quvchilarning raqamli savodxonligi va XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.[6]

Finlandiya tajribasida savodxonlik o‘qitish, tilni o‘rganish, muloqot, media ko‘nikmalarining uzviy birligi sifatida qaraladi. Bu esa 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning savodxonlik hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini asoslaydi.[7]

Buyuk Britaniya boshlang‘ich ta’limida ona tili (English) darslarini o‘qitishda fonetik o‘qitish (phonics)ni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli ilovalar, interaktiv doskalar, elektron kitoblar va multimedia resurslaridan keng foydalaniladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning o‘qish, yozish va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ta’lim jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish individual ta’limni tashkil etish va o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish imkonini beradi.[8]

Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish o‘qituvchining ishini yengillashtirish bilan birga, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ilgari o‘qituvchi ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash uchun ko‘p vaqt va qo‘l mehnatini sarflagan bo‘lsa, bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalar, xususan kompyuter, multimedia dasturlari va raqamli resurslar bu jarayonni sezilarli darajada

[2] Colwell J., Hutchison A.C. Supporting Teachers in Integrating Digital Technology Into Language Arts Instruction to Promote Literacy // Journal of Digital Learning in Teacher Education. – 2015. – Vol. 31, No. 2. – P. 56–63. DOI: 10.1080/21532974.2014.991813.URL: https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/21532974.2014.991813

[3] Finnish National Agency for Education. Literacy Movement 2021. – Helsinki: Finnish National Agency for Education, 2021. – 32 p. – 9 p. ISBN 978-952-13-6825-7. – ISBN 978-952-13-6826-4 (PDF). – Available at: https://www.oph.fi/en/statistics-and-publications/publications/literacy-movement-2021.

[4] Department for Education. The Reading Framework: Teaching the Foundations of Literacy. – London: Department for Education, 2023. – Available at: https://www.gov.uk/government/publications/the-reading-framework-teaching-the-foundations-of-literacy

tezlashtirmoqda. Bu esa dars vaqtini tejash, materiallarni sifatli vizuallashtirish hamda o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, didaktik o‘yinlar aniq ta’lim maqsadiga yo‘naltirilganda savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda, xususan ona tili darslarida pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanish muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Raqamli vositalar va interaktiv metodlarning integratsiyasi o‘quvchilarning savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish, dars jarayoniga qiziqishini oshirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim platformalari va multimedia yondashuvlari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, Plickers, Wordwall va LearningApps kabi raqamli platformalar asosida yaratilgan multimedia topshiriqlari hamda didaktik o‘yinlar o‘quv jarayonini faollashtirib, bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalarni integratsiyalash orqali intensiv o‘qitish metodikasini takomillashtirish va 1-sinf ona tili darslarining sifatini oshirish imkoniyati yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jabborova O.M, UmarovZ.A, Babaxodjayeva L.G “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” darslik. T-2021. –197 b.

2. Colwell J., Hutchison A.C. Supporting Teachers in Integrating Digital Technology Into Language Arts Instruction to Promote Literacy // Journal of Digital Learning in Teacher Education. – 2015. – Vol. 31, No. 2. – P. 56–63. DOI: 10.1080/21532974.2014.991813.URL: https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/21532974.2014.991813

3. Finnish National Agency for Education. Literacy Movement 2021. – Helsinki: Finnish National Agency for Education, 2021. – 32 p. – 9 p. ISBN 978-952-13-6825-7. – ISBN 978-952-13-6826-4 (PDF). – Availableat:https://www.oph.fi/en/statistilications/publications/literacy-movement-2021.

4. Department for Education. The Reading Framework: Teaching the Foundations of Literacy. – London: Department for Education, 2023. – Available at: https://www.gov.uk/government/publications/the-reading-framework-teaching-the-foundations-of-literacy